

INFILYATSIYA O‘ZGARISHINING JAMG‘ARMA BALANSIGA TA‘SIRI

Kenjayeva Azizahon Xursanaliyevna

*Norin Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi tibbiyot tehnikumi*

Biznes asoslari fani o‘qituvchisi

Telefon: +998 97 426 78 27

Email: azizakenjayeva464@gmail.com

Inflyatsiya o‘zi biror narsaga ta‘sir qiladimi? Avvalroq birinchi chorak yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonda inflyatsiya tashqi ta‘sirilar fonida biroz tezlashgani, iste‘mol narxlari indeksi o‘tgan yilning dekabriga nisbatan 2,9 foizga oshgani haqida xabar berilgan edi.

Inflyatsiya jarayoni aslida Amerikada boshlangan. Lekin uning o‘shish sur‘ati dunyoning boshqa boy mamlakatlari borib taqaladi. Bunday mamlakatlarda iste‘mol narxlari yiliga 7,7 foizga o‘shib bormoqda, bu kamida o‘ttiz yillikdagi eng tez o‘shish sur‘atidir, deb yozadi [The Economist](#).

Niderlandiyada inflyatsiya 10 foizga yaqin, bu esa hatto Amerikadagidan ham yuqori, Estoniyada esa 15 foizdan oshadi.

Markaziy banklar inflyatsiya o‘shishiga qanchalik javob beradi?

Javob inflyatsiya qanchalik zarar keltirayotganiga bog‘liq.

Inflyatsiya har doim qimmatga tushadi, chunki u odamlarning jamg‘armalarini yo‘q qiladi va narx signallarini buzadi. Shubhasiz, u iqtisodiy inqirozga sabab bo‘lgan holatlar ham mavjud.

1920-yillarda Veymar Germaniyasida giperinflyatsiya davrida odamlarning jamg‘armalari bug‘lanib, o‘rta sinfni yo‘q qilgan va fashizmning yuksalishiga yo‘l ochgan.

Robert Mugabe davrida Zimbabvedda ham inflyatsiya nazoratdan chiqqan. Narx signallari ishlamay qolganda millionlab odamlar oziq-ovqatsiz qolgan.

Ammo hozirgi kabi mo'tadil inflyatsiya epizodlarida iqtisodiy inqirozning dalillari zaifroq. Umumiy xavotirlardan biri shundaki, narxlarning o'sishi ish haqining ko'tarilishidan yuqori bo'lib, odamlarning real daromadlarining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Bu hodisa so'nggi oylarda dunyoning boy mamlakatlarida sodir bo'lyapti. Amerikaning real soatlik daromadi yil davomida deyarli 3 foizga kamaydi.

Umuman olganda, iqtisodchilar inflyatsiya va ishchilarning real turmush darajasi o'rtasida zaif bog'liqlik ko'rishadi. Ba'zan narxlar ish haqiga qaraganda tezroq ko'tarilsa, ba'zan bunday bo'lmaydi.

Inflyatsiya ishlayotgan odamlarga zarar yetkazsa ham ishsizlarga ish topishga yordam berishi mumkin. 2007—2009-yillardagi jahon moliyaviy inqirozidan keyin funt sterling qadrsizlanib, Buyuk Britaniyada inflyatsiyani kuchaytirgan va real ish haqini pasaytirgan. Shunda kompaniyalar ko'proq ishchilarni yollashga qodir bo'lgan.

Kapitalizm resurslarni nisbiy narxlarning o'zgarishi orqali taqsimlaydi: agar avtomobil narxi velosiped narxiga nisbatan ko'tarilsa, oxir-oqibat ko'proq avtomobil ishlab chiqarilishi kerak bo'ladi.

Xavotirli tomoni shundaki, inflyatsiya bu jarayonni buzadi, bu esa avtomobillar va velosipedlarning nisbiy narxlarini aniqlashni qiyinlashtiradi.

2018-yilda nashr etilgan maqolada, Berkli Kaliforniya universitetidan Emi Nakamura va uning hamkasblari vaqt o'tishi bilan bir xil turdagi mahsulotlar uchun narxlarning o'zgarishini o'rganadilar.

1970-yillardagi yuqori inflyatsiya davridan kelib chiqib, ular inflyatsiya ancha past bo'lgan pandemiyadan avvalgi davrda ham narxlar o'z optimal darajasidan farq qilmaganini aniqlaydi.

Past inflyatsiya darajasining optimalligi haqidagi kuchli xulosalarni qayta ko'rib chiqish kerak, — deb hisoblagan Nakamura [1].

Boy mamlakatlarda inflyatsiyaning hozirgi inqirozi minimal darajadami yoki yo'q?

Iqtisodchilarning muammosi shundaki, ularning tadqiqotidan tashqarida butun dunyo mavjud. Tadqiqot natijalariga esa juda kam odam e'tibor beradi va ularning bari inflyatsiyadan nafratlanadi.

Inflyatsiya jamoatchilik ongida alohida o'rin tutadi. 2010-yillarda ishsizlik ancha katta iqtisodiy muammo bo'lganiga qaramay ingliz ommaviy axborot vositalari inflyatsiyani ishsizlikdan ko'ra 50 foizga ko'proq yoritishgan.

1990-yillarda Yel universitetidan Robert Shiller bir qator mamlakatlardagi odamlardan inflyatsiya haqidagi fikrlarini so'ragan va ularni iqtisodchilarning fikrlari bilan solishtirgan.

Uning aniqlashicha, oddiy odamlar bu mavzuda akademiklarga qaraganda ancha radikal qarashlarga ega.

Odamlar inflyatsiya ularni kambag'alga aylantirishiga ishonishadi va inflyatsiyani vijdotsiz kompaniyalar ulardan foydalanayotganidan dalolat deb hisoblaydilar (amerikaliklarning uchdan ikki qismi so'nggi inflyatsiyaning o'sishini korporativ ochko'zlik bilan bog'laydi).

Amerikaliklarning yarmidan ko'pi yuqori inflyatsiyaning oldini olish giyohvand moddalarni iste'mol qilishni to'xtatish yoki ta'lim standartlarini saqlab qolish kabi muhim jarayon ekanligiga to'liq qo'shiladi, iqtisodchilarning esa atigi 18 foizi bunday fikrda.

Xuddi shu so'rovda odamlarning 46 foizi hukumatdan inflyatsiyaning keskin o'sishidan so'ng narxlarni pasaytirishini xohlashi aniqlangan, buni bir nechta iqtisodchilar ham tavsiya qilgan [2].

Real vaziyat

Ehtimol, siyosatchilar oddiy odamlarning fikriga e'tibor bermasliklari kerakdir. Agar ekspertlar inflyatsiya sezilarli darajada past xarajatlarga olib kelishini aniqlasa, siyosatni boshqarish uchun yana qanday ma'lumotlar talab qilinadi?

Biroq yuqori inflyatsiyaning psixologik xarajatlari real. Shu sababli, markaziy banklar va hukumatlar tomonidan bu hisobga olinishi kerak.

Moliyaviy yoki pul-kredit siyosatini majburan kuchaytirish orqali inflyatsiyaga qarshi kurashish ko‘pincha qiyin tanlov sifatida qaraladi, chunki u iqtisodiyotni sovitadi va retsessiyani keltirib chiqarishi mumkin. Aslida bu eng populistik siyosatlardan biridir [3].

Avvalambor, inflatsiya darajasi deganda, biz ko‘proq iqtisodiyotdagi narxlarning o‘shish sur‘atlarini umumiy bir holda tushunamiz. Ya‘ni tanlab olingan mahsulotlar, xizmatlar narxlari yil davomida umumiy hisobda qanchalik o‘sgani tushuniladi.

Agar e‘tibor berilsa, 10,9 foiz inflatsiya shakllangani bilan uning tarkibidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining yillik o‘shishi 13,8 foizni tashkil etdi.

Xuddi shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlarining yillik o‘shishi 8,8 foiz, xizmatlarniki 8,3 foizga o‘ydi. Buni tarkibiy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, aynan oziq-ovqat guruhidagi tovarlarimizning narxlari biroz yuqori darajada o‘shishini ko‘rsatmoqda.

Bu yil bazaviy prognozimiz bo‘yicha, asosiy ssenariyimizga ko‘ra, inflatsiya darajasi 9-10 foiz bo‘lishi kutilmoqda.

Umumiy inflatsiya darajasi bugungi kunda prognoz koridorimiz doirasida pasayib boryapti. Lekin aynan o‘sha oziq-ovqat guruhidagi narxlar biroz yuqoriligicha saqlanib qolyapti. Bu bevosita bir qancha omillarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi, jahon bozorlarida asosiy oziq-ovqat tovarlari narxining o‘shishi. Bunga ham juda ko‘p omillar ta‘sir qiladi. Masalan, hosildorlik darajasi, ob-havo sharoitlari, tashqi bozordagi logistika, umuman, bizning savdo hamkorlarimiz tomonidan ushbu mahsulotga nisbatan qo‘llanayotgan ma‘lum bir cheklovlar bu mahsulotlar narxining import jihatdan oshishiga olib kelmoqda [4].

Ikkinchi omil – bizning o‘simlik yog‘i, shakar va boshqa mahsulotlar importiga bog‘liqligimiz bor. Bu yerdagi raqobat sharoitlari, transport logistika masalalari ham narxlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Aynan nooziq-ovqat tovarlar narxlari o‘shishi bizni biroz xavotirga solyapti. Keyinchalik buni pasaytirish bo‘yicha hukumat bilan birgalikda takliflar

ishlab chiqilyapti. Albatta, takliflar amaliyotga joriy qilinishi o'zining ijobiy natijasini beradi.

Biz 9-10 foizlik prognozni ishlab chiqish jarayonida barcha omillarni inobatga oldik. Albatta, ularni ikki yo'nalishga bo'lishimiz mumkin. Birinchisi, monetar omillar. Bu bevosita iqtisodiyotdagi yalpi talab darajasi va uni qo'llab-quvvatlovchi taklif bilan bog'liq [5].

Ikkinchisi, nomonetar omillar. Monetar omillarni pasaytirish bo'yicha Markaziy bankda barcha instrumentlar yetarli.

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha strategiya ishlab chiqilishi, undan tashqari, hukumat darajasida ko'rilayotgan choralar oziq-ovqat mahsulotlari narxining ham kelgusida pasayishiga imkon beradi.

Umuman olganda, biz jahon narxlari prognozlariga e'tibor beradigan bo'lsak, kelgusi yil uchun yog' ishlab chiqarish oktyabr oylariga borib pasayish trendiga ega. Ya'ni hosil kuz oylarida yetishtiriladi (o'simlik yog'i ham). Kuzdan keyin ushbu mahsulot narxida biroz pasayish bo'yicha fyuchers shartnomalari tuzilyapti.

Asosiy prognozning o'zida ham barcha xatarlarni inobatga olganmiz. U xatarlar bo'lmagan sharoitda, prognozimiz quyi koridordagi xatarlarga yaqinlashadi. Bunday olib qaraganda, oziq-ovqat guruhining inflatsiyaga ta'siri 30-35 foiz atrofida, deb qaralmoqda.

Bugungi kunda umumiy iste'mol savatchasida oziq-ovqat mahsulotlari guruhi bor. Asosan yog' mahsulotlarini oladigan bo'lsak, ular maksimal o'sgan taqdirda ham, inflatsiyaga umumiy ta'siri kichik summalarda ko'rinadi. Sababi iste'mol tarkibida boshqa yana 510ta tovar ham bor [6].

Shu nuqtayi nazardan agar xatarlar yuzaga keladigan bo'lsa, avvalambor instrumentlarimiz orqali chora ko'ramiz, undan tashqari, prognozimizni ozroq yuqori tomonga qarab ko'rib chiqishimiz mumkin. Ya'ni bugungi kunda berayotgan 9-10 foizni yuqori chegarasigacha ko'rib chiqamiz. Bu, albatta, juda ko'p omillarga bog'liq.

Hozirgi kunda jahon moliya tashkilotlari, xalqaro valuta fondi ham iqtisodiy o'sishning inklyuzivligiga juda katta e'tibor qaratishyapti. Umumiy olganda, iqtisodiy o'sish nominal ko'rsatkichlarda bo'lishi mumkin. Masalan, yiliga 5-6-7-8 foiz.

Lekin u iqtisodiy o'sish odamlar hayotida aks etmasa yoki aholi daromadlarining o'sishiga, xarid qobiliyatini saqlab qolishga va turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmasa, faqat raqamlardan iborat bo'lib qoladi [7].

Shu nuqtayi nazardan inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash bizning asosiy maqsadimiz. Ya'ni iqtisodiy o'sish bilan birgalikda aholi turmush darajasi, daromadlari va xarid qobiliyati ham oshib borishi kerak.

Bevosita mana shu uch ko'rsatkichga eng katta ta'sir ko'rsatadigan omil, bu inflatsiya ko'rsatkichidir.

Tasavvur qiling, bugun oladigan 1-2 yoki 3 mln so'm daromadimiz, ertaga inflatsiya ta'sirida 10 foizga qadrsizlansa, bundan olinadigan foyda va samara ham kam bo'ladi.

Shu sababli ushbu mablag'lar xarid qobiliyatining saqlab qolinishi inflatsiyaning past bo'lishi bilan bog'liqdir.

Bundan tashqari, inflatsiya pasaygan sharoitda investorlarning mamlakatga bo'lgan ishonchi juda yuqori bo'ladi. Makroiqtisodiy barqarorlik bo'lgan joyda iqtisodiy o'sishga fundamental asoslar yaratiladi [8].

Tasavvur qiling, siz tadbirkorsiz. Ishlab chiqarishni yo'lga qo'yimoqchisiz. Ishchi kuchi jalb qilasiz yoki mablag'laringizni biror loyihaga tikmoqchisiz. Siz uchun eng muhim narsa kelajakdagi narxlar qanday darajada bo'lishi.

Albatta, siz agar kelajakda noaniqliklar bo'lsa yoki 2-3 yildan keyin vaziyat qanday bo'lishini baholay olmasangiz, pul tikishga ham qiynalasiz yoki bu jarayonda sizga juda katta to'siqlar yuzaga kelishi mumkin. Ya'ni kelajakni ko'ra olmaslik, makroiqtisodiy beqarorlik mavjudligi investor va tadbirkor uchun ertangi kunga bo'lgan ishonchni kamaytiradi.

Bevosita ertangi kunga bo‘lgan ishonch kamayishi, investitsiyalar kamayishiga, ishlab chiqarish pasayishiga olib keladi. Buning investitsion barqarorlikka ham ta'siri bor [9].

To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar ham kelgusida inflatsiya darajasi qanday bo‘lishi va makroiqtisodiy barqarorlik bilan bog‘liq bo‘ladi. Bevosita investitsion muhitning yaxshilanishi, investitsiyalarning ko‘payishi kelgusida iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shadi.

Maqsadimiz inklyuziv – har bir insonning hayotida aks etadigan, faqat nominal ko‘rsatkichlar emas, real ko‘rsatkichlarni o‘zgartira oladigan iqtisodiy o‘shishga kelish. Bu, albatta, uzviy ravishda narxlar barqarorligini ta'minlash bilan bog‘liq.

Pulni istalgancha chiqarish mumkin. Juda ko‘p xorijiy ekspertlar buni «vertolyotnyy dengi» deyishadi. Pulni iqtisodiyotga qo‘yish mumkin. Lekin iqtisodiyotning bu pulni hazm qila olish qobiliyati, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini inobatga olgan holda bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Biz inflatsiyaning tashqi va ichki, umuman makroiqtisodiy omillarga bo‘lgan yalpi talabga ta'sir etuvchi omillariga e'tibor qaratamiz. Qaysi ko‘rsatkich yoki qaysi bir parametr yalpi talab hajmi oshishiga olib kelsa, agar yalpi taklif unga mutanosib ravishda o‘smaydigan bo‘lsa, bu ma'lum bir ma'noda narxlarga yoki qaysidir bozorlarga bosim keltirishi mumkin [10].

Bugungi kunda tashqi qarz tarkibiga qaraydigan bo‘lsak, u asosan, investitsion loyihalarga jalb qilinyapti. Kelgusida bu ishlab chiqarish hajmi oshishiga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, jalb qilinayotgan mablag‘lar yalpi talab hajmi oshishiga ham ta'sir qilish ehtimoli katta.

Shu nuqtayi nazardan biz yalpi taklif bilan yalpi talab o‘rtasidagi muvozanatli nuqtani topish uchun harakat qiladigan choralar narxlar barqarorligiga ham ta'sir qiladi.

Bevosita yalpi talabga mutanosib ravishda yalpi taklif hajmlari ham rivojlanadigan bo'lsa, bu ta'sirlar kamroq darajada bo'lishi mumkin. Buni baholash uchun keng qamrovli tahlillardan foydalanishga to'g'ri keladi.

2019 yilda inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan. 2023 yilga borib bu ko'rsatkich 5 foizni tashkil etadi. 2021 yil oxirigacha esa 10 foiz, ya'ni bir xonali songacha pasayishi ko'zlangan.

Umuman olganda, iqtisodiyotimiz uchun inflatsiya darajasi qanday bo'lishi kerak, degan savol juda ko'p tahlillarni talab qiladi.

Birinchi navbatda, savdo hamkorlarimiz o'rtasidagi munosabatlarda bo'ladigan ulardagi inflatsiya darajasini inobatga olishimiz kerak [11].

Agar asosiy savdo hamkorlarimizga e'tibor beradigan bo'lsak, Rossiyada inflyatsion target 4 foiz, Qozog'istonda 4-6 foiz atrofida shakllangan. Xitoyda esa 3 foiz atrofida target ko'rsatkichlari belgilangan.

Tashqi savdo operatsiyalariga kirishar ekanmiz, albatta, bir davlatdagi inflatsiya ko'rsatkichi yuqori bo'lsa, eksport salohiyati va umuman tovarlarning nisbatan qimmatligiga olib keladi. Masalan, bizda inflatsiya darajasi yuqoriligi tovarlarning nisbiy ustunligini pasaytirishi mumkin.

Ikkinchidan, bugungi kunda tahlilchilar tomonidan iqtisodiy rivojlanishga xalal bermaydigan ko'rsatkichlar aniq belgilab berilgan. Rivojlanayotgan davlatlar uchun 4-5 foizlik inflatsiya bo'lishi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini pasaytirmaydi. Rivojlangan davlatlar uchun esa 2 foiz atrofida deb olinadi. Masalan, AQSh, Yaponiya va Yevropa markaziy banklarining targeti 2 foizlik inflatsiyani ta'minlashdan iborat.

Yaponiya yoki Yevropa ittifoqida deflyatsiya ham kuzatiladi. Deflyatsiya ular uchun yomon. Negaki, bu investitsion jarayonlarni kechiktirishga olib keladi [12].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Soliyev A., Shukurjon B. ZAMONAVIY TRANSPORT LOGISTIKA MARKAZ FAOLIYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 575-580.

2. Bakirov L. Y., Soliyev A. F. TRANSPORT VA PIYODALAR HARAKAT OQIMINING JADALLIGI VA TARKIBINING O‘ZGARISHI //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 25. – №. 3. – С. 53-55.
3. Soliyev A., Raximbek X. TRANSPORT VOSITALARI KONSTRUKTIV XAVFSIZLIK TIZIMLARINI JORIY ETISHNING TASHKILY VA HUQUQIY ASOSLARI TAXLILI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 568-574.
4. Farxodbek o‘g‘li S. A., Dadajan o‘g‘li A. S. TRANSPORT LOGISTIKASI MARKAZINI YARATISH VA LOYIHALASH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С. 115-120.
5. Farxodbek o‘g‘li S. A., Dadajon o‘g‘li A. S. AVTOMOBILLARNI SOVUTISH TIZIMIGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH VA TA‘MIRLASH ISHLARI TEXNALOGIYASI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 21. – №. 1. – С. 54-59.
6. Asliddin P. et al. SILINDR-PORSHEN GURUHI ELEMENTLARINING TAVSIFI VA DVIGATELNING EFFEKTIV KO‘RSATKICHLARI //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 605-611.
7. Asliddin P. et al. PORSHEN HALQASINING ISHIGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 611-620.
8. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 471. – С. 06015
9. Farxodbek o‘g‘li S. A., Zohidjon o‘g‘li Z. D. SHAHAR KOCHA YOLLARIDA TRANSPORT OQIMIGA MAVJUD TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI TAHLILI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 18. – №. 3. – С. 195-198.
10. Farxodbek o‘g‘li S. A., Zohidjon o‘g‘li Z. D. SHAHAR YOLLARIDA TRANSPORT OQIMINI TARTIBGA SOLISHDA QO‘SHIMCHA CHORA TADBIRLAR //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 18. – №. 3. – С. 202-204.

11. Farxodbek o'g'li S. A., Zohidjon o'g'li Z. D. AVTOMOBILLARNING DVIGATELINI TARKIBIY QISMLARIGA TASHXIS QO'YISH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 21. – №. 1. – С. 49-53.

12. Farxodbek o'g'li S. A., Zohidjon o'g'li Z. D. SILINDR BILAN PORSHEN ORASIDAGI TIRQISHNI DVIGATELGA TA'SIRINI TAXLIL QILISH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 21. – №. 1. – С. 124-127.